

**Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki
korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan
xodimlarni rag'batlantirish**

SIYOSATI

1-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Siyosat O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, Prezidentning 12.01.2022-yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son Qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, shuningdek, “UzAutoMotors” AJ (keyingi o‘rinlarda “Jamiyat”) ichki hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish tartibini belgilaydi.

1.2. Asosiy tushunchalar:

- **korrupsiya** – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

- **korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

- **manfaatlar to‘qnashuvi** – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan yoxud ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, Jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

- **korrupsiyaga oid xatti-harakat (harakatsizlik)** – sodir etishga urinish tegishli o‘rganish yoki tekshirish natijalariga ko‘ra tasdiqlangan, biroq xodimning o‘z xohishi bilan yakunlanmagan korrupsiya alomatlariga ega harakat (harakatsizlik);

1.2.1. Ushbu Siyosatda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

- **korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlar** – Jamiyat ishchi-xodimlari;

- **korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etish** – Jamiyat va uning tizim korxonalarida tayyorgarlik ko‘rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish;

- **korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashish** – korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish va uni fosh etishda ahamiyatga ega bo‘lgan dalillar haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish yoki bunday toifadagi jinoyatlarni tergov qilish yoxud tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishda bevosita ko‘maklashish;

- **korrupsiyaga oid ma‘muriy huquqbuzarliklar** – Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 61¹, 193¹ va 193²-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar;

- **korrupsiyaga oid jinoyatlar** – Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi “g” bandi, 168-moddasining uchinchi qismi “v” bandi, 192⁹ va 192¹⁰, 205, 209 – 214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar;

- **korruptsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash va fosh etish bilan bog'liq tezkor-qidiruv tadbirlarini hamda protsessual harakatlarni amalga oshiruvchi organlar** (keyingi o'rinlarda – korruptsiyaga qarshi kurashuvchi organlar) – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti;

- **maxsus komissiya** – korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish uchun Jamiyat rahbarii buyrug'i bilan kamida 5 kishi (toq son), ya'ni komissiya raisi va a'zolaridan iborat doimiy faoliyat ko'rsatuvchi maxsus komissiya tuziladi.

1.3. Quyidagilar korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirishning (keyingi o'rinlarda – rag'batlantirish) asosiy vazifalari hisoblanadi:

- Jamiyatda korruptsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohadagi siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash;

- korruptsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta'minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

- xodimlarning korruptsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash.

1.4. Rag'batlantirish qonuniylik, adolatlilik, xolislik, oshkoralik, xodimlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va xohish-istaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

1.5. Ushbu Siyosat talablari quyidagi xodimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

- Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida kelib tushgan xabarlarni ko'rib chiqish va xizmat tekshiruvlarni o'tkazishga vakolatlangan xodimlar;

- qonunchilik hujjatlariga muvofiq korruptsiyaga oid jinoyatlar haqida o'z ixtiyori bilan arz qilgan va korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni bevosita sodir etgan xodimlar.

1.6. Rag'batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg'a shaklida belgilanadi.

1.7. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqidagi xabarlarga asosan, Komplayens xizmati tomonidan o'rganish, zaruratga ko'ra xizmat tekshiruvi o'tkazilib, yakuniga ko'ra to'plangan hujjatlar tegishli munosabat bildirish uchun Jamiyat rahbariyatiga yuboriladi.

2-bob. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish asoslari va turlari

2.1. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida Jamiyat rahbariyatiga yoki bevosita Komplayens xizmatiga xabar berilib, shunga asosan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik fosh etilgan taqdirda, xabar beruvchi yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar bir martalik pul mukofoti, sovg'a yoki tashakkurnoma bilan rag'batlantiriladi.

2.2. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar quyidagi miqdordagi bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi:

a) korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun – bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida;

b) korrupsiyaga oid jinoiy huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun:

- ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat uchun – bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida;

- uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun – bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari miqdorida;

- og'ir jinoyat uchun – bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida;

- o'ta og'ir jinoyat uchun – bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari miqdorida.

Bunda, ayni bir huquqbuzarlik haqida berilgan xabarlar uchun bir martalik pul mukofoti xabar beruvchilar o'rtasida solidar tartibda taqsimlanadi.

2.3. Esdalik sovg'a qiymati berilgan xabarning natijasiga qarab bazaviy hisoblash miqdorining ikki, besh, o'n va o'n besh baravarigacha bo'lishi mumkin.

2.4. Quyidagi holatlarda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodim:

- ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik haqida xabar berganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining to'rt baravari;

- har xil tasnifdagi ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida xabar berganlik uchun ushbu jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligidan kelib chiqib og'irroq tasnifi bo'yicha bir marta;

- bir xil tasnifdagi ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida xabar berganlik uchun bir marta rag'batlantirilishi mumkin.

2.5. Quyidagi qarorlardan biri qabul qilingandan so'ng rag'batlantirish masalasi ko'rib chiqiladi:

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha jinoyat ishlari yuzasidan sudning ayblov hukmi yoki qarori qonuniy kuchga kirganda;

- Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasi birinchi qismining 1-3-bandlari, uchinchi qismi hamda beshinchi qismining 1-bandi asosida ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish haqidagi qaror prokuror tomonidan tasdiqlanganda yoki sudning ajrimi qonuniy kuchga kirganda;

- holat yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvi dalolatnomasi tasdiqlanganidan so'ng;

2.6. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlar Jamiyat mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

3-bob. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish komissiyasi

3.1. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish uchun Jamiyat rahbari buyrug'i bilan kamida 5 kishi (toq son), ya'ni komissiya raisi va a'zolaridan iborat doimiy faoliyat ko'rsatuvchi maxsus komissiya tuziladi.

Komissiya faoliyati, shuningdek tegishli nizom bilan tartibga solinadi.

3.2. Maxsus komissiya tarkibi Jamiyat Bosh direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Maxsus komissiya tarkibida Komplayens xizmati rahbari bo'lishi shart.

3.3. Maxsus komissiya kotibi ovoz berish huquqisiz ushbu Siyosatning 3.1-bandida belgilangan komissiya tarkibiga qo'shimcha ravishda komissiya tasdiqlangan buyruq bilan Komplayens xizmati xodimlari orasidan ishdan ajralmagan holda tayinlanadi.

3.4. Maxsus komissiya huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish uchun kelib tushgan hujjatlarni o'rganadi.

Huquqbuzarlik haqidagi xabar va korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqacha tarzda berilgan ko'makning korruptsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash va fosh etishda yoki oldini olishdagi ahamiyati hamda erishilgan natijani inobatga olib, mazkur Siyosatga muvofiq rag'batlantirishning turi va miqdorini aniqlaydi yoki rag'batlantirishni rad etadi.

3.5. Maxsus komissiya yig'ilishi rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish uchun taqdimnoma(lar) kelib tushgan kundan boshlab uch ish kun ichida o'tkaziladi.

Qoida tariqasida, taqdimnomalar huquqbuzarlik haqidagi xabar bergan xodimlarga nisbatan Jamiyatning Komplayens xizmati, korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqacha tarzda berilgan ko'mak uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan shuningdek, Jamiyatning "Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish va ularni ta'qib qilmaslikni ta'minlash bo'yicha komissiyasi to'g'risida"gi Nizomda nazarda tutilgan tartibda berilishi mumkin.

3.6. Taqdimnoma mazkur Siyosatning 4-bobida nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqiladi.

3.7. Maxsus komissiya Jamiyatning barcha tarmoqlaridan ishga aloqador hujjatlarni ko'rib chiqish uchun talab qilish, ishning mohiyatini ochiqlash uchun mutaxassis xulosi zarur bo'lsa, mutaxassis jalb qilish huquqiga ega.

Bunda, jalb qilingan mutaxassisga huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarga oid ma'lumotlar oshkor etilmaydi.

3.9. Maxsus komissiyaga kelib tushgan taqdimnoma va ilova qilingan hujjatlar, komissiya qarorlari hamda boshqa hujjatlar arxivga oid qonun-hujjatlari va ichki me'yoriy qoidalarga muvofiq saqlanadi.

4-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish va rag'batlantirish tartibi

4.1. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasi Siyosatning 3.1-bandida belgilangan tartibda tuziladigan maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi.

4.2. Xodimlarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar bo'yicha yuritilgan ishlar yuzasidan mazkur Siyosatning 2.5-banida ko'rsatilgan qarorlardan biri qabul qilinganidan so'ng, Siyosatning 3.5-bani tartibida komissiyaga murojaat (taqdimnoma) kiritiladi.

4.3. Taqdimnomaga rag'batlantirish uchun asos bo'luvchi quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- ro'yxatdan o'tgan ariza nusxasi yoki og'zaki berilgan xabarni tasdiqlovchi ma'lumotlar;

- sudning qonuniy kuchga kirgan qarori yoki ayblov hukmi nusxasi;

- shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarning shaxsiy hisobvarag'i bo'lgan bank rekvizitlari.

4.4. Rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish haqidagi taqdimnoma va unga ilova qilingan asoslovchi hujjatlar rag'batlantirish uchun asos yuzaga kelgan kundan boshlab uch ish kuni ichida maxsus komissiyaga taqdim etiladi.

4.5. Maxsus komissiya tomonidan rag'batlantirishga oid hujjatlar olingan kundan boshlab uch ish kuni ichida kotib taqdim etilgan hujjatlarning to'liqligi, asoslilik va ushbu Siyosat talablariga rioya qilinganligi ko'rib chiqadi.

Kelib tushgan taqdimnoma va ilova qilingan hujjatlar to'liq emasligi va ularni rasmiylashtirishda ushbu Siyosat talablariga rioya qilinmagani aniqlangan taqdirda, kotib maxsus komissiya raisini xabardor qilgan holda, ikki ish kuni ichida hujjatlarni ijrochiga qaytaradi.

Qaytarilish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilgan taqdirda, hujjatlar ushbu Siyosat talablari asosida qayta taqdim etilishi mumkin.

Dastlabki o'rganish ijobiy yakunlanganda, maxsus komissiya a'zolariga komissiya raisi imzosi bilan yig'ilish o'tkazish joyi, vaqti va boshqa zarur ma'lumotlar ko'rsatilgan xabar yuboriladi.

4.6. Rag'batlantirish bo'yicha maxsus komissiya tomonidan chiqarilgan qarorlar bayonnoma shaklida "XDFU" ustxati bilan rasmiylashtiriladi.

Bayonnomada kelib tushgan xabar mazmuni, aniqlangan holatlar, erishilgan natija hamda rag'batlantirish turi va miqdori aniq ko'rsatiladi.

4.7. Jamiyat maxsus komissiyaning tegishli qarori asosida komissiya mas'ul kotibi tomonidan bir ish kuni ichida bir martalik pul mukofoti, esdalik sovg'asi

yoki tashakkurnoma bilan taqdirlash haqida Jamiyat rahbari buyrug'i loyihasi ("XDFU" ustaxati bilan) tayyorlanadi.

Buyruqda rag'batlantirish sababi va maxsus komissiya bayonidan iqtiboslar kiritilmaydi, lekin tegishli bayonnomaga havola qilinadi.

4.8. Buyruq tasdiqlanganidan so'ng, Jamiyatning xizmat doirasida foydalanish uchun hujjatlar bilan ishlash tartibiga muvofiq ijrosi ta'minlanadi.

Bir martalik pul mukofoti Buxgalteriya hisobi xizmati tomonidan o'n ish kuni ichida to'lab beriladi, esdalik sovg'asi esa, qonunchilik hujjatlariga muvofiq sovg'a qilinadigan buyum xarid qilingandan so'ng, maxsus komissiya tomonidan besh ish kuni ichida topshiriladi.

4.9. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish uchun berilgan pul mukofotlari va esdalik sovg'alari O'zbekiston Respublikasi Soliq kobeksiga muvofiq soliqqa tortiladi.

5-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni ta'qibga olinmasligi kafolati va shaxsini sir tutish tartibi

5.1. Xodimlar, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida ular haqidagi ma'lumotlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida sir tutiladi.

5.2. Xodimlar, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida ular haqidagi ma'lumotlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida oshkor etilishi mumkin.

5.3. Xodimlar, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarini himoya qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

6-bob. Statistik ma'lumotlarni jamlash tartibi

6.1. Jamiyat xisobidan rag'batlantirilgan xodimlar va ularni rag'batlantirish ishlari hisobi Komplayens xizmati tomonidan yuritiladi.

6.2. Xodimlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va boshqa vakolatli davlat organlariga statistik ma'lumot berilishi mumkin.

7-bob. Xabar berish usuli va tartibi

7.1. Agar xodimlarga ushbu Siyosat bo'yicha maslahatlar zarur bo'lsa, shuningdek, ushbu Siyosatni kimdir tomonidan buzilgan deb hisoblasalar, Komplayens xizmati **+99878 140 56 30** ishonch telefoni bo'yicha qo'ng'iroq qilishlari yoki compliance@uzautomotors.com elektron pochtasiga murojaat etishlari lozim.

7.2. Jamiyat mumkin bo'lgan qoidabuzarliklar to'g'risida vijdonan xabar bergan shaxslarga nisbatan hech qanday ta'sir yoki ta'qib choralari qo'llamaydi hamda shaxsiga oid ma'lumotlar sir tutilishini kafolatlaydi.

8-bob. Yakuniy qoidalar

8.1. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bilan bog'liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

8.2. Ushbu Siyosat talablari buzilganligida aybdor bo'lgan xodimlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.